– futbol bo‘yicha ixtisoslashgan sport maktablarida yuqori intensivlikdagi interval mashg‘ulotlar va kichik maydonli o‘yinlarni muntazam qo‘llash;

– yuklama hajmi va intensivligini sportchilarning yosh xususiyatlari hamda funksional tayyorgarligiga mos holda individuallashtirish;

– jismoniy tayyorgarlik darajasini muntazam test nazorati asosida monitoring qilish;

– murabbiylar amaliyotiga ilmiy asoslangan mashg‘ulot modellarini bosqichma-bosqich joriy etish.

Mazkur tadqiqot natijalari yosh futbolchilarning maxsus chidamkorligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi hamda sport maktablari mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda tashkil etishda metodik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi PF-5887-farmoni. “O‘zbekiston Respublikasida futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.12.2019.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-farmoni. “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.01.2020.

(3). Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. Москва, “Физкультура и спорт”, 1991, с.543

(4). Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2015, 280-bet.

(5). Abdullayev A.A., Xonkeldiyev Sh.X. Sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi. Toshkent, O‘zDJTSU nashriyoti, 2018, 320-bet.

Musurmonov Husan To‘raqul o‘g‘li (Samarqand davlat Pedagogika instituti “Jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi o‘qituvchisi; husanmusurmonov127@gmail.com)

O‘SMIR-YOSHLARNING JISMONIY FAOLLIGINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘smir-yoshlarning jismoniy faolligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda motivatsion mexanizmlarning jismoniy tarbiya jarayonidagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, o‘quv-mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish, raqamli platformalar va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan innovatsion uslublarning samaradorligi asoslab berilgan. Natijalar o‘smir-yoshlarning jismoniy tayyorgarligi, faolligi va sportga bo‘lgan qiziqishi oshganini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy faollik, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiya, interaktiv metodlar, sog‘lom turmush tarzi, motivatsiya, o‘quv-mashg‘ulot jarayoni, raqamli texnologiyalar.*

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ПОДРОСТКОВ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития физической активности подростков на основе инновационных подходов. Проанализирована роль современных педагогических технологий, интерактивных методов, информационно-коммуникационных средств и мотивационных механизмов в процессе физического воспитания. Обоснована эффективность индивидуализации учебно-тренировочного процесса, использования цифровых платформ и инновационных методик, направленных на формирование здорового образа жизни. Результаты исследования свидетельствуют о повышении уровня физической подготовленности и интереса подростков к занятиям спортом.*

Ключевые слова: *физическая активность, инновационный подход, педагогические технологии, интерактивные методы, здоровый образ жизни, мотивация, учебно-тренировочный процесс, цифровые технологии.*

TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING ADOLESCENTS' PHYSICAL ACTIVITY BASED ON INNOVATIVE APPROACHES

Annotation. *This article examines the theoretical and practical aspects of developing adolescents' physical activity based on innovative approaches. The study analyzes the role of modern pedagogical technologies, interactive methods, information and communication tools, and motivational mechanisms in the process of physical education. The effectiveness of individualizing the training process, using digital platforms, and applying innovative methods aimed at promoting a healthy lifestyle is substantiated. The research results indicate an increase in adolescents' physical fitness, activity level, and interest in sports.*

Keywords: *physical activity, innovative approach, pedagogical technologies, interactive methods, healthy lifestyle, motivation, training process, digital technologies.*

Kirish. Jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanish hamda sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish orqali har bir fuqaroda kasallikka qarshi kuchli immun tizimi paydo bo‘lishini ta’minlash, zararli odatlardan voz kechish, to‘g‘ri ovqatlanish tamoyillariga amal qilish, tiklash va reabilitatsiya ishlari hamda ommaviy jismoniy faollik tadbirlarini tizimli va samarali tashkil qilish, bu borada tegishli infratuzilma va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida: Quyidagilar Sog‘lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilangan:har bir oila, mahalla va tuman (shahar)da, maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus,professional va oliy ta’lim muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug‘ullanishga shart-sharoitlar yaratish; ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha oilalar, sinflar, mehnat jamoalari va hududlar o‘rtasida sport musobaqalarini muntazam ravishda o‘tkazish, aholi turli guruhlarining sog‘lom ovqatlanishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishni ta’minlaydigan shart-sharoitlar yaratish, tarkibida tuz, qand va yog‘ miqdori ko‘p bo‘lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini iste’mol qilishni qisqartirish, zararli odatlardan, xususan, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishdan voz kechish yo‘li bilan kasallikka chalinish, ortiqcha vazn holatlari (semizlik) va bevaqt vafot etishni kamaytirish; aholi o‘rtasida sog‘lom ovqatlanish madaniyatini keng targ‘ib qilish, shu jumladan, tartibsiz va kechki uyqu oldidan ovqatlanish odatlaridan voz kechish; sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etilishini oilalar, mahallalar, maktabgacha ta’lim va umumta’lim muassasalari darajasida sog‘lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida targ‘ib qilish; maktabgacha ta’lim, umumta’lim, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida, korxona, tashkilot va boshqa turdagi barcha muassasalarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish uchun zamonaviy moddiy-texnika bazasini shakllantirish.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda o‘smir-yoshlar hayot tarzida kamharakatlilik (gipodinamiya) muammosi tobora kuchayib bormoqda. Virtual muhitning kengayishi, mobil qurilmalardan ortiqcha foydalanish hamda passiv turmush tarzi yoshlar salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada jismoniy tayyorgarlik darajasining pasayishi, ortiqcha vazn, tez charchash va turli funksional buzilishlar kuzatilmoqda. Shu bois o‘smir-yoshlarning jismoniy faolligini oshirish, ularni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot 14–15 yoshli o‘smirlar ishtirokida sport ta’lim muassasasi sharoitida olib borildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, testlash, tajriba-sinov, taqqoslash hamda statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ishtirokchilar tajriba guruhi (TG) va nazorat guruhi (NG)ga ajratildi.

Tajriba guruhi uchun innovatsion yondashuvlarga asoslangan yillik mashg‘ulot dasturi ishlab chiqildi. Dastur uch bosqichda (moslashuv, rivojlantiruvchi, mustahkamlovchi) amalga oshirildi. Mashg‘ulotlarda interaktiv metodlar, o‘yin texnologiyalari, gamifikatsiya, raqamli monitoring vositalari va individuallashtirilgan yondashuvlar qo‘llanildi. Nazorat guruhi esa an’anaviy jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari asosida shug‘ullandi. An’anaviy jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, ko‘p hollarda, o‘quvchilarning individual qiziqish va ehtiyojlarini to‘liq qondira olmayapti. Shu sababli innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda motivatsion mexanizmlarni joriy etish orqali o‘quv-mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur masalaning dolzarbligi shundaki, innovatsion yondashuvlar nafaqat jismoniy rivojlanishni, balki o‘smirlarning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi va sog‘lom hayotiy kompetensiyalarini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Jismoniy faollik – o‘smir-yoshlarning sog‘lom rivojlanishi, organizmning funksional imkoniyatlarini kengaytirish va hayot sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam jismoniy mashqlar yurak-qon tomir, nafas olish va tayanch-harakat tizimining mustahkamlanishiga, psixologik barqarorlik va emotsional holatning yaxshilanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, jismoniy faollik yoshlarning intellektual salohiyati va o‘quv faoliyatidagi natijadorligini ham oshiradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar bu o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan, raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan hamda interaktiv hamkorlikka asoslangan metodlar majmuasidir. Bunday yondashuvlar o‘smirlarning sportga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish va samaradorligini oshirish imkonini beradi. Mazkur maqolada o‘smir-yoshlarning jismoniy faolligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning nazariy asoslari, amaliy uslublari hamda ularning pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi.

Tadqiqot maqsadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi o‘smir-yoshlarning jismoniy faolligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish hamda ularning amaliy samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti o‘smir-yoshlarning jismoniy tarbiya jarayoni bo‘lib, predmeti esa ularning jismoniy faolligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish usullari, vositalari hamda pedagogik shart-sharoitlaridan iborat.

Natija. Tadqiqot natijalari tajriba guruhi o‘quvchilarida jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining barqaror o‘sishini ko‘rsatdi. Xususan, 30 metrga yugurish, 1000 metrga yugurish, turnikda tortilish, joyidan uzunlikka sakrash va moslashuvchanlik ko‘rsatkichlarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Yillik monitoring natijalariga ko‘ra, tajriba guruhida asosiy jismoniy sifatlar o‘rtacha 12–18%ga yaxshilandi. Nazorat guruhida esa o‘sish ko‘rsatkichlari nisbatan past bo‘ldi. Bu holat innovatsion yondashuvlarga asoslangan mashg‘ulot dasturining samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijasida o‘smir-yoshlarning jismoniy faolligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning nazariy asoslari takomillashtiriladi, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish mexanizmlari ishlab chiqiladi hamda ularning samaradorligi ilmiy asosda isbotlanadi. Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar umumta’lim maktablari, sport maktablari va oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishda, o‘quv dasturlarini takomillashtirishda hamda murabbiy va o‘qituvchilar faoliyatida amaliy qo‘llanma sifatida foydalanilishi mumkin.

1-jadval

Yillik reja

Bosqich	Davomiyligi	Asosiy yo‘nalish	Mashg‘ulot mazmuni (kengaytirilgan)	Innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar	Nazorat shakli
I bosqich (moslashuv)	1–3 oy	Umumiy jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish, organizmni yuklamaga moslashtirish	Yengil yugurish (400–800 m), past intensivlikdagi interval mashqlar, umumrivojlant-ruvchi mashqlar (qo‘l, oyoq, gavda), koordinatsion mashqlar, sakrash elementlari, harakatli va milliy o‘yinlar	O‘yin texnologiyasi, kichik guruhlarda ishlash, motivatesion reyting tizimi, QR-kodli topshiriqlar, raqamli qadam o‘lchagich (pedometr)	Boshlang‘ich testlar, sog‘liq monitoringi, jismoniy tayyorgarlik diagnostikasi
II bosqich (rivojlantiruvchi)	4–8 oy	Kuch, tezkorlik, chidamlilik va chaqqonlikni rivojlantirish	Interval yugurish (100–200 m), estafeta mashqlari, turnik va tayanch mashqlari, sakrash kombinatsiyalari, minifutbol, basketbol, voleybol elementlari, funksional trening	Interaktiv metodlar (stansiya usuli), fitness ilovalar, raqamli taymer, videoanaliz, “Challenge” haftalik topshiriqlar	Oraliq testlar, yuklama monitoringi, yurak urish tezligi nazorati
III bosqich (mustahkamlovchi)	9–12 oy	Maxsus tayyorgarlik, natijalarni mustahkamlash va baholash	Kompleks funksional mashqlar, musobaqa elementlari, nazorat normativlari, kross yugurish (1000–1500 m), aralash estafetalar, jamoaviy sport turnirlari	Gamifikatsiya (ball tizimi), shaxsiy natija kartasi, elektron monitoring jadvali, individual rivojlanish tahlili	Yakuniy testlar, natijalarni qiyosiy tahlil, foizli o‘sish ko‘rsatkichlari

Mazkur yillik reja 14–15 yoshli o‘smirlarning yosh va fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, bosqichma-bosqich tamoyil asosida ishlab chiqilgan. Dasturda yuklama hajmi va intensivligi asta-sekin oshirib boriladi, bu esa organizmning moslashuv jarayonini ta’minlaydi hamda ortiqcha zo‘riqishning oldini oladi.

I bosqich (moslashuv) davrida asosiy e’tibor umumiy jismoniy tayyorgarlikni shakllantirishga qaratiladi. Bu bosqichda o‘quvchilar organizmi muntazam yuklamalarga moslashtiriladi, koordinatsiya va harakat madaniyati rivojlantiriladi. O‘yin texnologiyalari va jamoaviy mashqlar o‘smirlarning qiziqishini oshirib, ijtimoiy faolligini kuchaytiradi.

II bosqich (rivojlantiruvchi) jarayonida jismoniy sifatlarni (kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik) maqsadli rivojlantirish amalga oshiriladi. Interaktiv metodlar, stansiya usuli, raqamli vositalar va video-

analiz qo‘llanilishi mashg‘ulot samaradorligini oshiradi hamda o‘quvchilarning o‘z natijalarini tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

III bosqich (mustahkamlovchi) bosqichida erishilgan natijalar nazorat testlari va musobaqa elementlari orqali mustahkamlanadi. Gamifikatsiya va reyting tizimi o‘quvchilarda sog‘lom raqobat muhitini yaratadi hamda ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Yakuniy natijalar boshlang‘ich ko‘rsatkichlar bilan qiyoslanib, o‘sish dinamikasi aniqlanadi.

Umuman olganda, mazkur yillik reja innovatsion pedagogik yondashuvlarga asoslanib, o‘smir-yoshlarning jismoniy rivojlanishi, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va sportga barqaror qiziqishini ta’minlashga xizmat qiladi.

2-jadval

TG va NG guruhlarining jismoniy tayyorgarligi. Asosiy jismoniy ko‘rsatkichlar (yillik monitoring)

Ko‘rsatkichlar	Boshlang‘ich daraja (o‘rtacha)	6 oy	12 oy (kutilgan natija)	O‘sish (%)
30 m yugurish (sek.)	5.8–6.2	5.5	5.2	8–12 %
1000 m yugurish (min.)	4.30–4.50	4.15	3.55–4.00	10–15 %
Turnikda tortilish (marta)	5–7	8	10–12	30–40 %
Joyidan uzunlikka sakrash (sm)	180–190	195	205–215	10–12 %
Oldinga egilish (sm)	5–6	7	9–10	20–30 %
Jismoniy faollik indeksi	O‘rtacha	Yaxshi	Yuqori	Barqaror o‘sish

Mazkur monitoring tizimi o‘smir-yoshlarning jismoniy rivojlanish jarayonini tizimli va uzluksiz ravishda kuzatish, tahlil qilish hamda baholash imkonini beradi. Monitoring jarayoni nafaqat yakuniy natijani aniqlash, balki rivojlanish dinamikasini bosqichma-bosqich o‘rganishga xizmat qiladi. Har bir ko‘rsatkich (tezkorlik, chidamlilik, kuch, moslashuvchanlik va umumiy jismoniy faollik indeksi) muntazam ravishda o‘lchanib, yarim yillik va yillik kesimda tahlil qilinadi. Bu esa o‘quvchilarning individual o‘sish sur’atlarini aniqlash, ularning kuchli va sust tomonlarini belgilash hamda mashg‘ulot jarayonini shaxsiylashtirish imkonini yaratadi.

Ko‘rsatkichlarning har 6 oyda boshlang‘ich natijalar bilan qiyoslanishi pedagogik jarayon samaradorligini ilmiy asosda baholashga yordam beradi. O‘sish foizi mashg‘ulotlarda qo‘llanilgan metod va vositalarning natijadorligini ko‘rsatuvchi muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi. Agar o‘sish dinamikasi rejalashtirilgan darajadan past bo‘lsa, yuklama hajmi, intensivligi yoki mashg‘ulot mazmuniga tegishli tuzatishlar kiritiladi. Aksincha, ijobiy va barqaror o‘sish kuzatilganda, murakkabroq mashqlar hamda yuqori intensivelikdagi yuklamalarga bosqichma-bosqich o‘tiladi. Shu tariqa, monitoring tizimi pedagogik boshqaruvning samarali vositasiga aylanadi.

Yillik natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlar – interaktiv metodlar, gamifikatsiya, raqamli nazorat vositalari, shaxsiy natija kartalari va motivatsion tizimlar qo‘llanilganda jismoniy sifatlarning o‘rtacha 12–18%ga yaxshilanishiga erishish mumkin. Bu o‘sish nafaqat jismoniy tayyorgarlik darajasining ortishi, balki o‘smirlarning mashg‘ulotlarga qiziqishi, ichki motivatsiyasi va sog‘lom turmush tarziga ongli munosabatining shakllanishi bilan ham izohlanadi. Shuningdek, muntazam nazorat va natijalarni vizual ko‘rinishda tahlil qilish (grafiklar, reytinglar, elektron jadvallar) o‘quvchilarda o‘z ustida ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi va sog‘lom raqobat muhitini yaratadi.

Umuman olganda, mazkur monitoring tizimi innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashgan holda o‘smir-yoshlarning jismoniy rivojlanishini kompleks boshqarish, samaradorlikni oshirish va uzoq muddatli barqaror natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Xulosa. O‘smir-yoshlarning jismoniy faolligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining dolzarb va ustuvor vazifalaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy mashg‘ulot shakllarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, gamifikatsiya va raqamli monitoring vositalari bilan boyitish jismoniy tarbiya jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Yillik tajriba-sinov natijalari asosida o‘smirlarning tezkorlik, chidamlilik, kuch va moslashuvchanlik kabi asosiy jismoniy sifatlarida o‘rtacha 12–18% ijobiy o‘sish kuzatildi. Shu bilan birga, mashg‘ulotlarga qatnashish faolligi, sportga qiziqish va ichki motivatsiya darajasi ham oshgani aniqlandi. Bu esa innovatsion yondashuvlarning nafaqat jismoniy rivojlanishga, balki o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Monitoring tizimining muntazam qo‘llanilishi jismoniy rivojlanish dinamikasini nazorat qilish, yuklama hajmini ilmiy asosda rejalashtirish hamda individual yondashuvni ta’minlash imkonini berdi. Natijada o‘quv-mashg‘ulot jarayoni tizimli, boshqariladigan va natijador shaklga keltirildi.

Umuman olganda, innovatsion yondashuvlarga asoslangan jismoniy tarbiya dasturi o‘smir-yoshlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularning jismoniy tayyorgarligini oshirish va sportga barqaror qiziqishini rivojlantirishda samarali vosita sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-farmoni. “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Toshkent, 2020, Manba: Lex.uz.

(2). Matkarimov R. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent, O‘zbekiston davlat Jismoniy tarbiya va sport universiteti nashriyoti, 2019, 320-bet.

(3). Abdullayev A. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2021, 288-bet.

(4). Kholboeva G.K. Mechanisms of improving the motor activity of children aged 6–7 years through initial gymnastics classes. Eurasian Journal of Sport Science. 2021, vol.1, № 2, p. 45–52.

(5). Xolboyeva G.X., Haydarov B.T., Tojieva X.B. Methodology of improving preliminary gymnastic disciplines in increasing activity of preschool age children. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020, №.6, p. 4562–4569.

(6). Xolboeva G.X. Mechanisms of improving primary gymnastics in increasing the motor activity of preschoolers. Scientific Bulletin of Samarkand State University. 2019, № 6, p. 140–144.

To‘raqulov Akbar Rustam o‘g‘li (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi; akbartoraqulov@dtpi.uz)

TALABALARDA IJTIMOIY-AXLOQIY KOMPETENSIYALARNI BAHOLASH MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalari ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini takomillashtirish muammosi tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida yoshlarning ijtimoiy mas’uliyati va axloqiy madaniyatini baholashga bo‘lgan ehtiyoj bilan asoslanadi. Tadqiqot nazariy-metodologik tahlilga tayangan holda olib borildi, pedagogik va psixologik adabiyotlar tizimli o‘rganildi hamda komponentli baholash modeli konseptual ravishda ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-axloqiy kompetensiya, baholash mezonlari, ko‘rsatkichlar, diagnostika, pedagogik monitoring, kompetensiyaviy yondashuv, axloqiy rivojlanish.*

Туракулов Акбар Рустам угли (старший преподаватель кафедры педагогики и психологии Деновского института предпринимательства и педагогики; akbartoraqulov@dtpi.uz)

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КРИТЕРИЕВ И ПОКАЗАТЕЛЕЙ ОЦЕНКИ СОЦИАЛЬНО-НРАВСТВЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В статье анализируется проблема совершенствования критериев и показателей оценки социально-нравственных компетенций студентов высших учебных заведений. Актуальность темы обосновывается необходимостью оценки социальной ответственности и нравственной культуры молодежи в процессе реализации государственной молодежной политики в Республике Узбекистан. Исследование проведено на основе теоретико-методологического анализа, системного изучения педагогической и психологической литературы, а также концептуальной разработки компонентной модели оценки.*

Ключевые слова: *социально-нравственная компетенция, критерии оценки, показатели, диагностика, педагогический мониторинг, компетентностный подход, нравственное развитие.*

Toraqulov Akbar (Senior Lecturer, Department of Pedagogy and Psychology, Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy; akbartoraqulov@dtpi.uz)

IMPROVING CRITERIA AND INDICATORS FOR ASSESSING STUDENTS’ SOCIO-MORAL COMPETENCIES

Annotation. *This article analyzes the problem of improving criteria and indicators for assessing socio-moral competencies of students in higher education institutions. The relevance of the topic is substantiated by the need to assess young people’s social responsibility and moral culture in the process of implementing state youth policy in the Republic of Uzbekistan. The study is based on theoretical and metho-dlogical analysis, a systematic review of pedagogical and psychological literature, and the conceptual development of a component-based assessment model.*

Keywords: *socio-moral competence, assessment criteria, indicators, diagnostics, pedagogical monitoring, competency-based approach, moral development.*

Kirish. Zamonaviy davrda ta’limning asosiy vazifalaridan biri faqat kasbiy bilimlarni emas, balki talabalarning ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarini ham tizimli ravishda shakllantirishdir. Ijtimoiy-axloqiy